

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronning sud-kimyo tezkor tekshiruv uslublari ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - jismoniy kuch bag‘ishlovchi moddalarni oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronni biologik suyuqliklar tarkibidan ajratib olinadi va tarkibidagi zaharli modda o‘rganiladi; - mavjud uslublarni takomillashtiriladi va yangi yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan texnologik usullar ishlab chiqiladi; - oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronni bemorlar qon va peshobi tarkibidan GSX, YuSSX apparatlarda tahlil qilinadi va miqdori aniqlanadi; - o‘tkir zaharlanish holatlarida sud-kimyo obyektlari bo‘lgan biologik suyuqliklardan ajratib olingan ajralmalarda soddalashtirilgan(mikroskopik) usullar yordamida zaharli modda mavjudligi aniqlanadi va ularga antidotlar tavsiya etiladi; - oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronni qon, peshob, so‘lak, soch, tirnoqdan ajratib olish uslublarni ishlab chiqiladi tibbiyot xodimlariga laboratoriya reglamentlari taklif qilinadi; - oksimetalon, metandienon, degidroxlormetiltestosteronning sud-kimyo tezkor tekshiruv uslublari ishlab chiqiladi tibbiyot muassasalariga metodik yo‘riqnomalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar eksperimental tadqiqotlar va tahlillar Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.